



Lobar **TURSUNOVA**,
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: lobartursunova288@gmail.com

Rennesans universiteti prof. f.f.d M. Turdibekov taqrizi asosida

GRADATION IN SYNTACTIC CONNECTIONS

Annotation

The article investigates and analyzes the phenomenon of gradation in syntactic relations. The phenomenon of gradation is applied to the concept of syntactic relations, and the nature of its material realization is clarified. The types of syntactic relations are identified and described. The scope of gradation within coordination is substantiated by empirical evidence in the formation of nominative and communicative units. Two types of coordination are characterized: open coordination and closed coordination.

Key words: Syntax, syntactic relation, coordination, subordination, dependency, subordination relations, gradation, agreement, government, adjacency.

ГРАДАЦИЯ В СИНТАКСИЧЕСКИХ СВЯЗЯХ

Аннотация

В статье исследуется и анализируется явление градации в синтаксических связях. Явление градации применяется к понятию синтаксической связи и подчеркивается её характер реализации. При этом определены разновидности и характеристики синтаксических связей. Проявление градации в сочинительной связи обосновывается с помощью иллюстративных материалов, которые образуют номинативные и коммуникативные единицы.

Ключевые слова: Синтаксис, синтаксические связи, сочинительные, подчинительные, подчинение, координативные, градация, согласование, управление, примыкание.

SINTAKTIK ALOQALARDA DARAJALANISH

Annotasiya

Maqolada sintaktik aloqalarda darajalanish hodisasi tadqiq va tahlil etilgan. Darajalanish hodisasi sintaktik aloqalar tushunchasiga tabiiq etilib, uning moddiylashuv xarakteri oydinlashtirilgan. Bunda sintaktik aloqalarning turlari belgilanib, tavsifi beriladi. Tenglanish aloqasining darajalanish qamrovi nominativ va kommunikativ birliklar hosil bo'lishi barobarida ashyoviy dalillar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: Sintaksis, sintaktik aloqa, tenglanish, tobelanish, tobelik, tobedoshlik, darajalanish, moslashuv, boshqaruv, bitishuv.

Sintaktik aloqalar hodisasi til sintatik sistemasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Har bir lisoniy hodisaning o'z mantiqiy asosi bo'lganidek, sintaktik qurilmalarning ham o'ziga xos mantiqiy asosi mavjud. Bu-asosning lisoniy tushunchasi sintagmatika sanaladi. Sintagmatika ham o'z navbatida mantiqiy asosga ega. Bu asos sintaktik aloqa deyiladi. Sintaktik aloqalar tufayli sintaktik qurilmaning mantiqiy-lisoniy mohiyati voqelanadi. Sintaktik qurilmalarning mantiqiy-lisoniy mohiyati sintaktik munosabat tushunchasiga teng keladi. Har qanday sintaktik butunlik, u sintaksisning qaysi sathiga aloqador bo'lishidan qat'iy nazar, sintaktik aloqa va sintaktik munosabat tushunchalarining o'zaro bog'liqlikda baravar vazifaga kirishuvidan tashkil topadi va nutqning real parchasiga aylanadi, obyektiv borliq narsa – hodisalarining muayyan bir vaziyatdagi o'zaro munosabatini ifodalaydi. Demak, real matnlarsiz, matnni sintaktik qurilmalarsiz tasavvur etish qiyin. O'z navbatida sintaktik qurilmalar esa sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlarsiz tasavvur etilmaydi. Sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar keng qamrovli hodisa sifatida lisoniy hodisalar tizimida alohida mavqega ega. Shu jihatdan uning darajalanish (graduonimiya) hodisasiga munosabati ham sintaktik aloqalar moddiylashuvida ahamiyatga molik hodisalar sirasiga kiradi.

O'zbek tilshunosligida darajalanish hodisasi tadqiqi H.Ne'matov, R.Rasulov, R.Safarova, O.Bozorov, Sh.Orifjonova, L.Xudoyberdieva, N.Shirinova, J.Djumabaeva, L.Elmurodova, G'.Rahmonov, M.Otaboyev, Q.Eshboyev tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlarda atroflicha o'z

in'ikosini topdi. Shuni qayd etish joizki, prof. O.Bozorov darajalanish (graduonimiya) hodisaning fonetik, fonologik, morfologik, sintaktik kabi til sathlarida amal qilishiga e'tibor qaratib, darajalanish hodisasi mezonini quyidagicha belgiladi: darajalanish belgi miqdorining ozayishi yoki ko'payishidir. Bir belgi turi miqdorining ozayishi yoki ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum yo'nalishning eng tor ko'lami ikki nuqta (predmet, hodisa, munosabat kabilar) oralig'i bilan belgilanadi. Darajalanish yo'nalishi nisbiy ikki nuqta bilan chegaralanib qolgan bo'lishi yoxud miqdor o'zgarishi ko'p nuqtalar orliqlarida yuz bergan bo'lishi ham mumkin [2] Keyinchalik darajalanish (graduonimiya) hodisasi oddiy leksik hodisa talqinida ko'rib chiqilishdan tilning barcha sathlari misolida talqin qilishgacha yuksalib bordi, so'ngra sathlararo munosabatlar talqini darajasigacha ko'tarilib, takomillashib bormoqda[9].

Tilshunos B.Mengliev tadqiqotida darajalanishning boshqa bir ko'rinishi – lisoniy birliklar umumiy lisoniy mohiyatining xususiy ma'nolargacha darajalanish bosqichlarini ajratildi. Olimning e'tirof etishicha, "zid qutblarni birlashtiruvchi nuqtalarga e'tibor qaratish ehtiyoji o'zbek substansial tilshunosligini yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Natijada miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuniga tayanuvchi graduonimik tilshunoslik shakllana boshladi. Bu muammo bo'yicha o'zbek tilshunosligida bir qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi" [6].

Tilshunos L.S.Xudoyberdieva "O'zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi" deb nomlangan

nomzodlik dissertatsiyasida nominativ birliklarning ma'noviy taraqqiyotini darajalanish qonuniyati asosida tadqiq qilgan. Bunda ma'no kengayishi va torayishi hodisasi hodisalar orasidagi tadrijiy darajalanish qonuniyatiga bo'ysunishini ilmiy asoslanadi[12]. Shuningdek, N.Shirinova o'zbek tilshunosligidagi darajalanish qonuniyatini lisoniy birlikning predmetlik va belgi ma'nosini farqlash omili sifatida talqin qildi[13].

Lisoniy birliklar umumiy lisoniy ma'nosining moddiylashuvida darajalanish o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi N.Musulmanova bu hodisani grammatik shakllar o'zi mansub kategoriya umumiy ma'nosini o'z imkoniyati va nutq sharoitiga mos ravishda turlicha xususiyatlashirilishi va bunda shakllar orasida bu xususiyatiga ko'ra darajalanish namoyon bo'lishini e'tirof etadi [7].

J.Ibragimov o'zbek tilini substansial-pragmatik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini tahlil etdi [3] F.Saidova, Q.Eshboev leksikadagi darajalanish qonuniyatining leksikografik ahamiyatini yoritish bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirdi[8].

Sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlarda ham darajalanish hodisasining sezilarli o'rni mavjud. Bizningcha, sintaktik aloqalar doirasida darajalanish sintaktik aloqalarda o'rtasidagi zidlanish(gradual oppozitsiya) munosabatiga ko'ra voqelanadi: tenglanish aloqasi; tobelanish aloqasi; (Jadvalga qaralsin). Shuni aytish zarurki, sintaktik aloqalarning moddiylashuvi bevosita darajalanish bilan ham uzviy bog'liqda sifat va ma'no darajasi bilan farqlanib boradi. Nominativ va kommunikativ xarakterdagi birliklarning mazmuniy planida o'zaro farqlanuv (differensiasiya) yuzaga keladi. Sintaktik sath hodisalarida darajalanish sintaktik butunliklar nopredikativ va predikativ qurilmalarida amal qiladi. Shu o'rinda tenglashish aloqasining darajalanish qamrovi belgilanadi, ya'ni sintaktik aloqa turlariga ko'ra tenglanish aloqasi – yopiq qatorli tenglanish, ochiq qatorli tenglanishga ajratiladi[1].

Yopiq qatorli tenglanish aloqali butunliklar miqdori cheklangan bo'ladi, ular ikkidandan ortiq bo'lmaydi. Yopiq qatorli tenglanish aloqasi yordamida hosil bog'lgan butunlikni hosil qilgan bog'lovchi vositani takrorlash yo'li bilan boshqa qismlar hisobiga kengaytirib bo'lmaydi. Yopiq qatorli tenglanish aloqasining darajalanish qamroviga ko'ra biriktiruv aloqasi (va, ham, hamda, bilan) zidlov aloqasi (ammo, lekin, biroq), qiyoslov (bo'lsa, esa) butunliklarni qamrab oladi:

1.Yopiq qatorli tenglanish aloqali so'z tizmasi xarakteridagi nominativ birikmalar doirasida amal qiladi: kitob va daftar, ota va ona (ot+ot); shafqatli va mehribon, d'yst va birodar (sifat + ot); men va sen, hech va hech narsa (olmosh + olmosh); sokin va osuda, tez va ravon (ravish +ravish); o'qidi va yozdi, ishladi va dam oldi (fe'l+ fe'l).

1.2. Yopiq qatorli tenglanish aloqali kommunikativ birliklarda ma'noviy darajalanish (semantikasi) qamrovi quyidagi tarzda voqelanadi :

a) bir paytlilik ma'nosini bildiradi: Vafosizda hayo yo'q va hayosizda vafo yo'q (Navoiy). Qiz bola onasiga yaqin turadi va o'zining dardini, barcha sirlarini faqat onasiga aytadi (R.Usmonov). Bolaning his – tuyg'ulari g'oyatda nafis va nozikdir va uni hayot bilan hamohang qilib voyaga etkazish o'qituvchi va tarbiyachilarning muqaddas burchidir ("Odobnoma").

b) turli paytlilik ma'nosini bildiradi: Qanday oy nuriga aylansa bo'lar va qachon oy nuriday sarg'aygan qo'llarim qaro sochlarini silab tirilgay (U.Azim).

g) qiyoslash ma'nosini bildiradi :Qush uyasida bolalarini parvozga chorlaydi, inson esa oila quchog'ida katta hayot ummonida javlon urishga o'rganmog'i zarur (R. Usmonov).

b) zidlash ma'nosini bildiradi :Sabr achchig'u, lekin mevasi shirin ("Tafakkur gulshani"). Narigi uyda yonib turgan

sham daricha tirqishidan milt – milt ko'zga ilinur, ammo shit etgan tovush eshitilmas edi (A.Qodiriy). Har bir og'ir xastalikka davo topiladi, ammo engiltak xulq – atvorning davosi yo'q (Ibn Sino). Ko'zi ojizlik kishi uchun og'ir xastalik, lekin haqiqatni soflikni, adolatni ko'ra bilmalik, his qila olmaslik jirkanch dil so'qirligidir (R.Usmonov).

Ochiq qatorli tenglanish aloqasida butunlik qismlari miqdori cheklanmaydi, butunlikni hosil qiluvchi bog'lovchi vositlarni takrorlash yoxud ohang evaziga kengaytiraverish mumkin bo'ladi. Sintaktik aloqaning bu turida darajalanish qamrovi quyidagi tarzda modiylashadi:

1.So'z tizmasi xarakterdagi grammatik tavsifi bir xil teng huquqli qismlar sintagmatikasi. Ochiq qatorli tenglanish aloqali so'z tizmasi xarakteridagi uyushiq nominativ birikmalar hosil bo'ladi: ukam, singlim; talabalar, o'qituvchilar, mehmonlar, mezbonlar (ot +ot); qizil, sariq; oq, qizil; chiroyli, go'zal; shirin, totli; (sifat+sifat); uzoqroqda, chetda; ozgina, kamgina; nochor, noiloj (ravish + ravish), o'qidi, yozdi; yig'ladi, kuldi; (fe'l-fe'l);

1.1. Ochiq qatorli tenglanish aloqali kommunikativ birliklar hosil qiladi: a) ayiruv – chegaralov ma'nosini bildiradi: Yormi ko'zguga boqqan, Yorga yo boqar ko'zgu (E.Vohidov). Orazi yo la'lmu, yo sham'mu, yo mashshariy, YO qamar, yo ko'zgumu , yo oftobi xovari (Ogahiy).

b) voqea – hodisaning galma – gal bajarilishi ma'nosini bildiradi: Goh she'rda bo'ldim mag'lub, goh kuldim tantanavor (U.Azim).

v) voqea – hodisalarning bajarilishini inkor etish ma'nosini bildiradi: Yozilar bir raqam, yo so'z bahona qog'ozmas qalblarga abad boshlar (U. Azim).Na o'g'limga ko'nglim moyil, na nabiramga (M.Shayxzoda).

g) voqea – hodisalarning birining bajarilishini inkor etish ma'nosini bildiradi: qisman inkor: Na unvon, na shuhrat va na mansab bordur, faqat hayo bordur, ey adabiyot! (U. Azim). Na shabada o'par yaproqlaridan, na ari bol yig'ar yanoqlaridan, na kapalak qo'nar, na g'uncha unar (S.Zununova).

Tobelanish aloqasi til sintaktik tizimida markaziy mavqe egallaydi.Tobelanish nutq uchun birinchi darajali muhim hodisa sanaladi.Tobelanish aloqasi yordamida hosil bo'lgan sintaktik butunliklarda hokim qismlar tobe qismlar tomonidan grammatik va semantik jihatlariga ko'ra izohlanadi. Darajalanish tobelanish aloqasi turlariga ko'ra modiylashadi: tobedoshlik (koordinativ) aloqasi, tobelik (subordinativ) aloqasi; Tilshunoslar sintaktik aloqa ni bu turini quyidagicha atashadi: a) ikki tomonlama aloqa (koordinasiya), b) bir tomonlama aloqa (subordinasiya) [5] .

Tobedoshlik aloqasi koordinativ aloqa ham deb ataladi. Bunda tobelikning y'nalishi ikki tomonlama bo'ladi. Sintaktik butunlik qismlaridan birini mutlaq hokim boshqasini mutlaq tobe deb bo'lmaydi.Tobe maqomdagi qismda hokimlik belgisi ham bo'ladi, aksincha, hokim maqomdagi qismda tobelik belgisini ham ko'rish mumkin. Shuning uchun tobelanish aloqasining bu turi tobedoshlik deyiladi . Tobedoshlik aloqasining ikki turi mavjud: predikativ tobedoshlik; qaratqichli tobedoshlik[1]. S.Inoyatov bu aloqani predikativ munosabatni voqelaniruvchi sintaktik aloqalar sifatida tobedoshlik (koordinativ) aloqa; yondoshlik aloqasi kabi turlarga ajratadi [4].

Tobedoshlik aloqasida darajalanish quyidagi tarzda modiylashadi.

1.Qaratqichli tobedoshlik moslashuv aloqali so'z birikmasi xarakteridagi nominativ birliklar hosil qiladi-nominativ xarakterdagi tobedoshlik: mening do'stim, yozuvchining asari, kitobning varag'i, mamlakatimizning poytaxti, mening Vatanim; energetika mustaqilligi, oziq – ovqat ta'minoti;

2.Predikativ tobedoshlik yoxud yondoshlik asosida yordamida gapning grammatik asosi vujudga keladi, bu aloqa

ega va kesim vazifasidagi so'zlarni bog'lab, kommunikativ xarakterdagi butunliklarni yuzaga keltiradi: Siz ishlayapsiz. Rustam o'qiydi. Har qanday ega va kesimning bog'lanishi tobedoshlik aloqasi yordamida amalga oshadi deb bo'lmaydi. Tobedoshlik aloqasi yordamida faqat fe'l kesimlar ega bilan bog'lanadi. Ot kesimli gaplarda ega va kesim tobelanishning fanga hali aniq bo'lmagan boshqa turi yordamida birikadi. Uni shartli ravishda yondoshlik aloqasi desa ham bo'ladi[1]. Masalan, Dadam ishda, akalarim maktabda (O'.Hoshimov).

2.1.Sodda gap xarakteridagi kommunikativ birliklar-kommunikativ xarakterdagi tobedoshlik: Yaxshi xulq – kishining husni; Dono durdan a'lo; Go'zallik –ilmu ma'rifatda; Didli yigit-ilmli yigit; hunarli yigit-ilmli yigit (Xalq maqollaridan); Shoirlar erta tug'iladilar (U. Azim) . Siz umringizda biror marta bog'da ishlab bahor kirib kelishini kuzatganmisiz? (X.Davron); Kumushbibi xatni o'qib tugatdida, haqiqat oldida o'ylanib qoldi (A.Qodiriy).

2.2. Qo'shma gap xarakteridagi kommunikativ birliklar-kommunikativ xarakterdagi tobedoshlik: a) bog'lovchisiz qo'shma gaplar: Salom- kattadan, Alif-nuqtadan; Odob-peshada, gunoh –teshada; Otasi tentakning biri tentak, onasi tentakning bari tentak; Aql –Hasan, odob-Husan; O'qigan–olim, o'qimagan -zolim (Xalq maqollaridan);

b) ergash gapli qo'shma gaplar: Kimki ilm shamidan nur olsa, u toabad o'lim ko'rmaydi. Kimki odamlarni g'iybat qilishdan tilini tiysa, Tangri ham uning aybu nuqsonlarini fosh qilmaydi (Hadisdan). Kishi o'zgalarning baxtidan baxt topsa, u haqiqiy yashagan hisoblanadi ("Tafakkur gulshani")

Tobelik aloqasi tobedoshlik aloqasining aksidir.Unda tobelanishning yo'nalishi bir tomonlama bo'ladi: tobe qismdan hokim qism tomon harakat qiladi.Tobelik aloqasi yordamida hosil bylgan sintaktik butunliklarning qismlaridan birida mutlaq tobelik, boshqasida mutlaq hokimlik belgisi mavjud bo'ladi.Tobelik aloqasi subordinativ aloqa ham deb yuritiladi[1].

Tobelik aloqasida darjlanish qamrovi quyidagi tarzda voqelanadi: tobelik aloqasi: zaruriy tobelik, fakultativ tobelik; zaruriy tobelik: boshqaruv, bitishuv;

1.Tobelik (subordinativ) aloqa nominativ xarakterdagi butunliklarni hosil qiladi : yurtga sadoqat, mustaqillik uchun kurash, obodonchilikka e'tibor, sevgiga sadoqat, yorga vafo (otli birikma); temirdan qattiq, guldin nozik, boldan shirin, do'stga mehribon, yurtda taniqli, yo'liga intizor, mehrga mushtok, fanga sodiq, kasbiga sadoqatli, ishda mohir, go'zal chechak (sifatli birikma); peshqadamlardan biri, kishilar orasida mingdan biri, oxiridan birinchi (sonli birikma);

ADABIYOTLAR

1. Berdialiyev A., Sheronov B. O'zbek tili sintaksisi. Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarining talabalari uchun darslik.-Xujand:Rahim Jalil nomidagi davlat nashriyoti,2010.-232 b.
2. Bozorov O. O'zbek tilida darjlanish.Toshkent: "Fan",1995.-132 b.
3. Ibragimov J.Yo. O'zbek tilini substansial-pragmatik tadqiq qilishning metodologik asoslari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori [PhD] ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.-Qarshi.-2019.-120 b.
4. Inoyatov B. O'zbek tilida predikativ munosabat: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref.-Toshkent.-1999.-22 b.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksisi) Toshkent: O'qituvchi, 1995.-229 b.
6. Mengliev B.R. O'zbek tilini substansial-pragmatik tadqiq qilish metodologiyasi // "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" 6 kitob. ("olti sonini rim raqamida yozish zarur")– Toshkent, 2002. – 272 b. 7.Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma'no: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2012. – 120 b.
7. Saidova F.A. Lug'atlarda sinonim leksemalar talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Guliston, 2023.- 139 b.
8. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref.-Toshkent.-1996.-47 b.
9. Rahmonov G'.R. O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati: Filol.fan.b. fals. dok. ...diss. avtoref. – Farg'ona, 2019. –24 b.
10. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun darslik– Toshkent: O'qituvchi, 1987. - 256 b.
11. Xudoyberdiyeva L.S. O'zbek tilida nominativ birliklarning darjlanishi: Filol.fanlari nomzodi ...diss. avtoref. – Toshkent, 2003.– 23 b.
12. Shirinova N.D. O'zbek tilida predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolarini farqlash vositalari: Filol.fanlari nomzodi ...dis. avtoref. – Buxoro, 2010. – 24 b.
13. Eshboev Q.B. So'zlararo darjlanish o'quv lug'atini tuzish asoslari Filol.fanlari nomzodi ...dis. avtoref .Andijon,2022. -43 b.